

Maishiy xizmat ko'rsatish sohasini klasterlashtirishning mazmuni va uning nazariy asoslari

B.M.Quliyev - SamISI mustaqil izlanuvchisi

Tadqiqotlarimiz natijasida klaster atamasining fanga kirib kelishida ilk takliflar amerikalik olim Maykl Porter tomonidan berilgani aniqlanadi. Uning klaster nazariyasining shakllanishida xizmatlari katta. U klasterga quyidagicha ta'rif beradi. "Klaster – bitta geografik hududda o'zaro bog'liq korxonalar va tashkilotlarni alohida bir tarmoq doirasida birlashtirish", deb ta'kidlaydi. Shu jihatdan bo'lsa kerak, ayrim socialistik tizimni boshidan kechirmagan mamlakatlarda ushbu klaster usulidan keng foydalanib kelinmoqda.

Ta'kidlash joizki, klaster so'zi va u bilan bog'liq tushunchalar xalqaro amaliyotda, shu jumladan, iqtisodiyotga oid fanlarda ham keng qo'llanilmoqda. Masalan, Finlandiyada o'rmon xo'jaligi klasteri, Norvegiyada dengiz texnologiyalari klasteri, Buyuk Britaniyada biotexnologik klaster, Italiyada oyoq kiyimini ishlab chiqaruvchi klaster, Germaniya va Belgiyada kimyoviy klaster kabilarni misol keltirish mumkin. Bulardan kelib chiqib, ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston iqtisodiyotida ham klaster usulidan foydalanish mumkin. Chunki mamlakatimizda bozor munosabatlari shakllanib, mulk tizimida xususiy mulkning ustuvorligi yetarli darajada ta'minlandi. Bunday sharoitda turli mulk egalarining boshini qovushtiradigan birorta iqtisodiy mexanizm kerak bo'ladi. Bunday mexanizm sifatida klasterni olish mumkin.

Shu tufayli, mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini o'nglashga innovasion usullarni, xususan, klaster usulini ham qo'llash mumkinligini taqozo qiladi. Mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlari ham shakllantirilmoqda. Buni oxirgi paytlarda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan bir qancha tadqiqotchilarning klaster usulidan foydalanayotganligida ham ko'rish mumkin. Bular jumlasiga D.X.Aslanova, M.T.Alimova, D.M.Qurbanova, S.Mirzayev, A.Q.G'apparov va B.R.Pardayev, Z.I.Sattarova, B.X.Turayev, Ye.A.Kim

kabilarning tavsiyalarini kiritish mumkin. Mazkur tadqiqotchilar asarlarida klasterning bozor munosabatlari sharoitida obyektiv zarurligi va ularning amaliyotda qo'llanilishi qarab chiqilgan. Shuningdek, klasterning boshqarishdagi o'rni, tarkibiy tuzilishi xususida e'tiborga molik tavsiyalar ham keltirilgan. Biroq, ushbu adabiyotlarda klaster tushunchasining mazmuni va uning ta'rif bilan bog'liq masalalar nazariy jihatdan to'liq ochib berilmagan. Bularni inobatga olib, klaster tushunchasining lug'aviy mazmunini va ta'rifini nazariy jihatdan qarab chiqish lozim, degan xulosaga keldik. Oxirgi paytlarda klaster atamasi iqtisodiyotga oid ayrim lug'atlarda keltirilmoqda. Jumladan, O'zbekistonda nashr qilingan "Marketing terminlari izohli lug'ati: asosiy tushunchalar va istilohlar" nomli lug'atda "Klasterli tahlil" atamasiga izoh berilgan. Unda e'tirof etilishicha, "**Klasterli tahlil** (ingl. Cluster analysis) – o'zaro umumiy jihatlar maksimal miqdoriga va iste'molchilarning boshqa guruhlariga nisbatan minimal o'xshashliklarga ega bo'lgan iste'molchilar guruhlarini aniqlash metodi". Bunda klaster atamasiga emas, undan foydalangan holdagi klaster tahliliga izoh berilgan.

Olimlardan M.A.Rahmatov, B.Z.Zaripovlar agro klaster masalasini yoritgan bo'lsa, D.X.Asanova va Z.I.Sattarovalar klasterning amaliyotda qo'llanilishini tavsiya qilgan va "Miranqul agroekoturistik klaster"ni ishlab chiqqan. Ushbu klaster Samarqand viloyatining so'lim tog' bag'rida joylashganligi tufayli turizmning mazkur shakli uchun juda qulaydir. Tadqiqotchilardan M.T.Alimovanning ta'kidlashicha, "Klaster" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "birga o'smoq" ma'nosini anglatadi. Bizning fikrimizcha, birga o'smoq tushunchasi birorta muammoni hal qilishda birgalashib harakat qilmoq ma'nosini bildiradi. Demak, birorta muammoni hal qilishda klaster yondashuvidan foydaladigan bo'lsak, albatta ushbu jarayonning yoki birorta faoliyatning samaradorligini oshirish uchun shunga daxldor bo'lgan kuchlarni birlashtirish haqida gap bormog'i lozim. Ushbu nazariy qarashlar uning ta'rifini ishlab chiqish uchun asos bo'lishi mumkin.

Bularni inobatga olib, klaster tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishni maqsadga muvofiq, deb topdik. Klaster deganda, birorta maqsadga erishish yoki

birorta jarayonni yaxlit holda samarali amalga oshirish uchun, o'zaro bog'liq bir qancha o'zaro bog'liq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning alohida bir soha doirasida birlashishi tushuniladi.

Buni nazariy jihatdan isbotlash uchun quyidagilarni ta'kidlashni maqsadga muvofiq, deb topdik. Birinchidan, klaster deganda, mazkur ta'rifda birorta maqsadga erishish yoki birorta jarayonni samarali amalga oshirish masalasi qo'yilgan. Chunki kuchlarni birlashtirib, birorta ishga safarbar qilinsa, albatta u tarqoq va yakka holda bajarilganligiga nisbatan samarali bo'ladi. Masalan, 100 kg. Yukni 30 metr joyga olib borish kerak bo'lsa, albatta bir kishi qancha urinmasin, juda qiyinchilik bilan amalga oshiradi. Agar 2 kishi bo'lsa, masala ancha yengillashadi. Agar 3 kishining kuchi bilashtirilsa, umuman muammo bo'lmaydi.

Ikkinchidan, iqtisodiyotda birorta masalani amalga oshirish uchun o'zaro bog'liq bir qancha xo'jalik yurituvchi subyektlarning safarbar qilinishi ham ta'rifda o'z ifodasini topgan. Masalan, mahsulotlarni "daladan – dosturxongacha" yetkazish uchun mahsulotlarni yetishtiruvchi korxonalar – fermer xo'jaligi ishtirok etadi. Uni saqlash uchun omborga tashiydigan transport korxonasi xizmatlaridan foydalaniladi. Saqlash uchun sovutgich xizmatidan foydalaniladi. Uni ist'molchilarga yetkazib berish uchun yana transport va savdo xizmatlaridan foydalaniladi. Bularning birlashishini ta'minlaydigan usul aynan klaster bo'lib hisoblanadi.

Uchinchidan, bu safarbarlik alohida bir soha doirasida birlashishni taqozo qilishi ham qayd etilgan. Shu yo'l bilan barcha kuchlar bir maqsadga yo'naltirilishiga erishiladi. Mazkur ta'rifdan xizmat ko'rsatish sohasining tarkibiy qismi bo'lgan saqlash va sotish xizmatlarini rivojlantirishda ham foydalanish mumkin. Bunday zamonaviy usullardan foydalanish hozirgi paytda obyektiv zaruratga aylanmoqda. Yuqorida sinergetik samara usulini va u bilan bog'liq tushuncha hamda jarayonlarning xizmat ko'rsatish sohasida qo'llanilish imkoniyatlarini qarab chiqqan edik. Endi shunga o'xshash va o'zaro bog'liq bo'lgan usullardan biri klaster usulini ham qarab chiqishni maqsadga muvofiq, deb topdik.

Samarqand viloyatida maishiy xizmat ko'rsatuvchi klasteri hududiy modeli tuzilmalarni tadqiq qilish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi: maishiy xizmat sohasida klaster hududiy modeli istiqbolda iste'molchilarning talablarini qondirishga xizmat qiladi, bandlikni oshirish, ishsizlikni tugatish, kambag'allikni qisqartirishda muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm hisoblanadi va Samarqand viloyatida hududiy klaster xilma-xil turdagi xizmatlarni shakllantirishga ixtisoslashgan tuzilma sifatida mavjud xo'jalik yurituvchi subektlarning birgalikdagi faoliyatini majmuasini shakllantiradi.

Hududiy klasterlarning rivojlanish xususiyatlari va turli xil funksional tuzilmalarni tadqiq qilish quyidagi xulosalar chiqarish imkonini beradi: **birinchidan**, maishiy xizmat sohasida klaster kelajakda shakllanadigan ehtiyojlarni maksimal qondirishga yo'naltirilgan bo'lib, sinergetik samaraga ega bo'lishga olib keladi; **ikkinchidan**, sohada xizmatlarni ko'rsatishda umumiy tavsifga ega xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha korxonalar va ixtisoslashgan tashkilotlar hududiy klasterning bevosita ishtirokchilari hisoblanadi; **uchinchidan**, hududiy klasterlarning bevosita va ixtiyoriy ishtirokchilari sifatida bozor infratuzilmasi tashkilotlarining kiritilishi kelgusidagi iqtisodiy samaraga erishish va uni qilingan xarajatlar bilan solishtirish orqali sinergetik samarani aniqlash kerak; **to'rtinchidan**, sohada klasterlarning yaratilishi korxonalar va iste'molchilarning geografik jihatdan hududda yaqin joylashganligi transaksion xarajatlarni kamaytiradi, bu hududning iqtisodiy, investitsion salohiyatidan samarali foydalanish uchun muhim asos hisoblanadi; **beshinchidan**, iqtisodiy-ijtimoiy salohiyat darajasi yuqori bo'lgan hudud xizmat ko'rsatish klasterini yaratish va takomillashtirishda o'ziga xos xususiyatlar va afzalliklarga ega bo'ladi, bu o'z navbatida, sohani rivojlantirish tamoyillari va yo'nalishlarini ishlab chiqishni asoslaydi; **oltinchidan**, hududiy klaster xilma-xil turdagi xizmatlarni shakllantirishga ixtisoslashgan tuzilma sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning birgalikdagi faoliyatiga asoslanadi.